

MEZON UL-AVZON ASARIDA: ARUZ VA MUSIQA

Madinabonu Abdufattoyeva-Mamirova¹

¹ Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibasi Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti 1-bosqich magistranti

Azizullah Aral¹

¹ Ilmiy rahbar

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 25.02.2025

Revised: 26.02.2025

Accepted: 27.02.2025

KALIT SO'ZLAR:

Alisher Navoiy,

*Mezon ul-Avzon, aruz,
musiqa, ritm, nazariya,
she'riyat, maqom,
ohang.*

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada Alisher Navoiy tomonidan yozilgan "Mezon ul-Avzon" asarining mazmuni, uning aruz ilmi bilan bog'liqligi hamda musiqa nazariyasiga ta'siri tahlil qilinadi. Aruz tizimi va uning ritmik xususiyatlari musiqiy ohang bilan uzviy bog'liqligi yoritiladi. Navoiy ijodida she'riyat va musiqa uyg'unligi muhim o'rinn tutishi va uning nazariy qarashlari bugungi kunda ham ahamiyatlili ekanligi asoslanadi. Shuningdek, maqolada musiqaning she'riyatdagi roli, ritm va ohang bo'yicha berilgan qarashlar va ularning nazariy tahlili hamda aruz tizimining musiqaga ta'siri haqida so'z yuritiladi.

KIRISH. Alisher Navoiy o'z davrining buyuk adibi va mutafakkiri sifatida nafaqat she'riyat, balki musiqa nazariyasi va aruz ilmi sohalarida ham o'z izini qoldirgan. Uning "Mezon ul-Avzon" asari aruz tizimini ilmiy jihatdan asoslab beruvchi muqaddima hisoblanadi. "Mezon ul-Avzon" 1492-1493-yillari yaratilgan bo'lib, muxtasar uslubda bitilgan. O'rta asr adabiyotshunosligida fanning muayyan masalasi bo'yicha risolalar muxtasar (biror fan yoki uning muayyan sohasini mukammal tarzda yorituvchi monografik xarakterdagi yirik asar) usulida yaratilgan. Ushbu asarda aruzning turli vaznlariga e'tibor qaratilib, she'riyatdagi ohang va ritmni belgilash yo'llari hamda ularning musiqiy asoslardagi rolini ko'rsatishga harakat etiladi. Navoiy aruzni nafaqat adabiy, balki musiqiy

omil sifatida ham tadqiq etgan. Shu nuqtai nazardan, maqolada Navoiyning aruz tizimi va musiqaga bo‘lgan ta’siri haqida ham ko‘rib chiqamiz.

“Mezon ul-Avzon” asari Alisher Navoiy tomonidan yuzilgan asar bo‘lib, unda aruz tizimi va uning qayd etilishi haqida juda ko‘p ma’lumotlar keltirilgan. Asar aruzning turli vaznlarini, ularning she’riy jarayonlardagi ahamiyatini, shuningdek, ulardan qanday qilib musiqa yaratish mumkinligini tushuntiradi. Ushbu asarda 9 ta poetik shakl va ularning vaznlari haqida ma’lumot keltirilgan bo‘lib, ularning aksariyati turkey xalq og‘zaki ijodiga mansub hisoblanadi. Navoiy ularning xalq orasida tarqagan nomlaridan foydalanadi, nomi yo‘qlarini esa aruzdagagi vaznlardan qaysi biriga mos bo‘lsa, shu vazn nomi bilan atay boshlaydi. Ular quyidagilar: **o‘n olti ruknli ramali maxbun, tuyuq, qo‘sinq(1), qo‘sinq(2), chinga, muhabbatnoma, mustazod, aruzvoriy hamda turkiy**. Navoiy aruzning har bir vaznni muayyan ohang va ritmga moslashtirishni ko‘rsatgan. Aruz - bu bir necha tonda yig‘ilgan harakatlardir, va bu jarayon musiqaning ritmik asoslari bilan uzviy bog‘liqdir. Aruzda juzvkar asosida 8 ta arkon(asl ruknlar) paydo bo‘lgan. Mazkur 8 ruknni aruz ilmida “Ajzoyi afo‘il” deb ataganlar. Musiqa ritmi asosida bog‘liqli bo‘lgani uchun yozib o‘tish joiz deb bildim:

1. Fauvlun, 2. Foilun, 3. Mafoiylun, 4. Mustaf’ilun, 5. Foilotun, 6. Mafoilatun, 7. Mutafoilun, 8. Maf’uvlotu.

Aruz tizimi va musiqa o‘rtasidagi bog‘liqlik asosan ritmik xususiyatlarga asoslanadi. Aruzning har bir vazni o‘ziga xos ritmga ega bo‘lib, bu ritm musiqada ham muhim o‘rin tutadi. Sharq musiqasida ritm she’riy vaznlarning qo‘llanilishi bilan yasaydi. Ushbu bog‘liqliknin alohida tahlil qilishda Navoiy she’rlarini musiqiy talqinda o‘rganish zarur. Navoiy o‘z asarlarida ritmik vaznlarning musiqiy tushunchalar bilan qanday uyg‘unlashishi haqida ilmiy izlanishlar olib borgan. Musiqa bilan birga, she’riyatning ritmik jihatlari va ohangli xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Navoiy she’riyatining musiqaga ta’siri va uning ohang va ritmga asoslanishi uning she’riy uslubi va mahoratining o‘ziga xos xususiyatlarini tashkil etadi. Navoiy she’rlarini o‘qishda musiqiy ohang va ritmni his qilish mumkin. Navoiy musiqani nafaqat adabiy vosita, balki insonning ruhiy holatini ifodalovchi shakl sifatida ko‘rgan. Navoiy ijodida musiqa va she’riyat uyg‘unligi ko‘p hollarda ma’noni kuchaytirish, shuningdek, his-tuyg‘ularni izhor qilish uchun ishlatalilgan. Ana endi navoiyning birgina g‘azalining misrasini tahlil qilib ko‘rsak:

Ko‘ngul qon bil visolingda, g‘ami hijron xayolidin

Misrasini yuqorida keltirgan musiqa ritmi asosida o‘qisak, mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun ruknlaridan tashkil topuvchi amal bahri deb olsak va agar:

Qon bil visolingda, g‘ami hijron xayolidin ko‘ngul

tarzida o‘qisak, mustaf‘ilun mustaf‘ilun mustaf‘ilun mustaf‘ilun ruknlaridan hosil bo‘luvchi rajaz bahriga duch kelamiz. Chunonchi, ushbu rajaz bahrlarini doira usullarida mo‘g‘ulcha, soqiyonna, talqin hamda ufar usullariga tushurib kuylab ko‘rilsa, Navoiyni aruz va musiqa bilan qanchalik go‘zal bog‘lab tushuntirib bergenini his etishimiz mumkin. Musiqa nazariyasi o‘zining alohida qonuniyatlari va tamoyillariga ega. Bular o‘z navbatida aruz tizimi bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lib, she’riy asarlarning musiqiy talqinini shakllantiradi. Aruzning har bir vazni musiqaning turli qismlariga ta’sir qiladi, masalan, melodiyalarning uzunligi, interval va tempning o‘zgarishi. Navoiy o‘z asarida musiqa va aruz tizimini birlashtirib, she’riy ritm va musiqiy ohangni uyg‘unlashtirgan.

“Mezon ul-Avzon” asari o‘zining ilmiy ahamiyati va amaliy qo‘llanilishi bilan nafaqat adabiyot, balki musiqa sohasida ham katta ahmiyatga ega. Navoiy o‘z ijodida aruz tizimi va musiqaning uyg‘unligini chuqur anglab, ularni bir-biriga qo‘sib, yuksak san’atni yaratgan. Bu asar hozirgi kunda musiqiy va adabiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Navoiy ijodi, shuningdek, musiqaning she’riyatdagi o‘rnini va aruz tizimining musiqaga ta’siri bo‘yicha keng qamrovli ilmiy izlanishlar o‘tkazishga imkon yaratadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mezon ul-Avzon. – Toshkent: Fan, 1991.
2. Vohidov A. Aruz va uning rivoji. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2005.
3. Saidov M. Sharq musiqasi va aruz uyg‘unligi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
4. Zohidov A. Alisher Navoiy ijodida aruz tizimi. – Toshkent: Fan, 2001.
5. Karimov M. Musiqa va adabiyot: Sharq madaniyatidagi uyg‘unlik. – Toshkent: Fan, 2012.
6. Xo‘jaeva Z. Alisher Navoiy va uning musiqiy izlanishlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013.